

INSON va qonun

2025-YIL
21-OKTABR
SESHANBA

№ 42
(1506)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz



telegram.me/hudud24official/



facebook.com/hudud24official/



MINNAT EMAS, HAQIQAT!



BU maqola Adliya vazirligi tomonidan (bir necha yil avval) o'zbek tilining davlat tili sifatida maqomi va nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladigan yaxshi qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yilgan kunlarda yozilgan edi.

➔ 2-betda o'qing

TIL BAYRAMI – EL BAYRAMI!



O'ZBEK tili xalqimiz ma'naviyati va milliy o'zligining asosiy poydevori hisoblanadi. Til millatning tarixi, ruhi va davlat mustaqilligining ramzidir.



➔ 3-betda o'qing



BUGUN dunyoda olti mingga yaqin til va sheva mavjud. Shundan atigi yuzga yaqini davlat tili maqomiga ega. Ular orasida ona tilimizning ham borligi bizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Zero, dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsolidir.

Milliy
o'zlik
timsoli



➔ 5-betda o'qing

Avaz O'tar g'azaliga muxammas

Gar ushbu Vatan bizga azal ota makondur,
Sultonlaridin sha'ni aning ro'yi jahondur.
Kim tilni bilur – elni bilur, shoniga shondur,
Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.

To yog'masalar boshingiza ta'na-yu toshlar,
Toshdin ham qattiq bo'lgusidir ilm ila boshlar,
Ey siz, qorako'z-u qorasoch-u qoraqoshlar,
G'ayri tilini sa'y qiling bilgali yoshlar,
Kim ilm-u hunarlar bilaki andin ayondur.

Bo'lmas kishiga ko'rk-u husn so'zni gulidek,
Har tilni biluv – dilni biluv, dilni – elidek,
Tilni yo'li ham shoh jahongirni yo'lidek,
Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting, foida kondur.

Haq sizga beribmish suvingiz ham dalangizni,
O'z bog'ingiz-u, qir-adiringiz, lolangizni,
Teng aylab jahon ahliga kuch-hafsalangizni,
Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,
Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.

Umr o'tgusidur suv kabi yo suvdagi xasdek,
Dilbandlaringizning bari daryoyi havasdek,
Ilm olmasalar umr bo'lur tiyra qafasdek,
Zor o'lmasun onlar dag'i til bilmay Avazdek,
Til bilmaganidan oni bag'ri to'la qondur.

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

KIM TILNI BILUR – ELNI BILUR

6 HOLAT

UDDASIDAN CHIQOLMAGAN “UDDABURON”



SARDOR Mansurov (ism-shariflar o'zgar-tirilgan) yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan yigit. Endigina 30 yoshdan oshgan, oilali, ikki nafar farzandning otasi.

U muqaddam sudlangan. 2024-yilning boshida jinoyat ishlari bo'yicha Karmana tuman sudining hukmiga ko'ra, ish haqining 30 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, 3 yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan. Oradan bir yil o'tib, jinoyat ishlari bo'yicha Navbahor tuman sudining ajrimi bilan o'talmay qolgan jazodan shartli ravishda ozod qilingan. Ammo bu insonparvarlik unga saboq bo'lmadi. Yigit yana jinoyat ko'chasiga kirdi. Endi unga axloq tuzatish emas, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

S. Mansurov ijtimoiy tarmoqlar orqali topgan tanishi Sojida Qodirovaning dugonasi Manzura Xolmatova “B” toifasidagi haydovchilik gu-voohnomasini olish niyatida ekanidan xabar topib, o'zini bunday yu-mushlarni do'ndiradigan uddaburon qilib ko'rsatib, 1 ming 500 AQSh dollari evaziga bu masalani hal qilib berishini bildiradi. Navoiy viloyat IIB RIBdan imtihondan o'ta olmagan dugona tezroq “prava”ni olishga qiziqib, bunga rozi bo'ladi. Guvohnoma savdosi tez pishib, dugonalar aytilgan pul bilan kelishilgan joyda uchrashishadi. Ammo bu uchrashuv Sardorga qimmatga tushdi. U paketdagi 1 ming 300 AQSh dollari hamda 2 million 600 ming so'm pulni olayotganda, huquq tartibot idoralari xodimlari tomonidan qo'lga olindi. Qopqonga tushgan yigit qo'rqqanidan dastlab o'zini oqlash uchun “pullarni olganim yo'q”, “qizlarning mendan qarzi bor edi”, deya ko'rsatma bergan bo'lsa-da, keyin to'g'risini aytib, aybiga iqror bo'ldi.

Sudlanuvchining firibgarlik, aldash yoki ishonchini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini qo'lga kiritish, suiqasd qilishdagi, davlat ishtirokidagi tashkilotning mansabdor shaxslariga pora berishga dalolat qilishdagi jinoiy xatti-harakatlari sudda o'z isbotini topdi.

S. Mansurovga jinoyat ishlari bo'yicha Karmana tuman sudining 2024-yil 8-yanvardagi hukmiga ko'ra tayinlanib, jinoyat ishlari bo'yicha Navbahor tuman sudining 2025-yil 6-martdagi jazodan muddatidan shartli ravishda ozod etish haqidagi ajrimning shartlilikini bekor qilib, o'talmay qolgan 1 yil 11 oy 6 kun axloq tuzatish ishlari jazosini qisman qo'shish yo'li bilan, o'tash uchun uzil-kesil 2 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Qilmish – qidirmish deb bejizga aytilmagan. O'z nafsiga qul bo'lib, o'z umrini barbod qilgan, yaqinlariga tashvish keltirgan, ayni navqiron yoshda temir panjara ortida o'tirgan yigit o'z xatosidan xulosa chi-qararmikan?

Dilobar PARDAYEVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudi sudyasi,
Marusa HOSILOVA,
“Inson va qonun” muxbiri

O'ZARO JIPSLIK VA HAMKORLIKNI TALAB ETADI



Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoni doimiy yangilanish va o'zgarishlarni talab qiladi. Shu bois, bu illatdan xalos bo'lish uchun oldimizda bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Eng avvalo, yosh avlodning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish, ularga halollik, poklik va to'g'rilik kabi fazilatlarini singdirish orqali korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunining 3-bobida “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish” masalalari 16, 17 va 18-moddalarda o'z ifodasini topgan. Zero, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan, huquqiy ta'lim va tarbiya jihatidan yetuk insonlar salbiy illat – korrupsiyaga yo'l qo'ymaydi.

Shu jihatdan, korrupsiyaga qarshi murosasizlikni yosh avlod ongiga singdirish, ularning halol va to'g'ri tarbiya topishini ta'minlash, salbiy ijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizlik ruhini shakllantirish

barchamizning burchimizdir. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiya harakatlarining mohiyatini chuqur anglash imkonini yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, korrupsiya bugungi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng dolzarb global muammolardan biri. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining buzilishiga sabab bo'ladi. Shu bois, unga qarshi kurashish xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Har bir fuqaro o'z xizmat vazifalarini halol, vijdonan va yuqori professional darajada bajarishi, vakolat doirasidan chiqmasligi, o'z sha'ni va qadr-qim-matini saqlashi, odob-axloq hamda kasb etikasiga rioya qilishi zarur. U o'z xolisligi va beg'arazligini shubha ostiga qo'yadigan, noxolis munosabat yoki afzallik haqidagi tasavvurlarni yuzaga keltiruvchi har qanday holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, barcha fuqarolarning faolligini oshirish – bugungi kunning eng muhim talabidir. Chunki korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining asosiy maqsadi va obyekti – alohida bir shaxs emas, balki ushbu xatti-harakatlarni yuzaga keltiruvchi sharoitlarni bartaraf etish va ularning oldini olishdir. Ana shundagina jamiyatda halollik, poklik va adolat ustuvor bo'lgan muhitni shakllantirish mumkin.

To'lqin TO'XTASINOV,
huquqshunos

OGOH BO'LING!



TABIY gaz barchamiz kundalik hayotimizda keng qo'llaydigan qulay va samarali ener-giya manbai. U sovuq kunlarda binolarni isitish, taom tayyorlash, sanoatda esa ish-lab chiqarish jarayonlarini ta'minlashda mu-him o'rin tutadi. Biroq, tabiiy gazdan o'zbo-shimchalik bilan, noto'g'ri foydalanish ho-latlar ham uchraydiki, bunga o'z vaqtida chora ko'rilmasa, xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasa, oqibati ayanchli bo'lishi ham mumkin.

Tabiiy gazning gaz quvurlaridan sizib chiqishi oddiy ko'ringani bilan, juda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli jarayondir. Shuning uchun ham, har bir korxona va tashkilotning yong'in xavfsizligi uchun mas'ul xodimlari, xona-don sohiblari kuzgi-qishki isitish mavusimiga pux-ta tayyorgarlik ko'rishga alohida e'tibor bilan qa-rashi zarur. Gaz qurilmalarini ishlatish alohida mas'uliyat talab qiladigan jarayon. Yong'in xavf-laridan ogoh va ehtiyot bo'lish nafaqat o'zingiz-ning, balki yaqinlaringizning hayotini ham asrab, yong'in xavflaridan saqlab qoladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, is gazi nafas yo'llariga kirganda gemoglobin bilan birikib, qon-

Xavotirga

O'RIN BOR!

dagi kislorodni tashish qobiliyatini sezilarli daraja-da pasaytiradi. Bu holat esa, organizmda kislorod yetishmasligiga olib keladi. Natijada bosh og'rig'i, charchoq, ko'ngil aynishi va hatto hushdan ketish kuzatiladi. Agar shunday alomatlar paydo bo'lsa, darhol bunga qarshi chora ko'rish kerak!

Is gazidan himoyalaniish uchun birinchi navbatda gaz uskunolari va isitish qurilmalari doimiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi lozim. Shuningdek, is gazini aniqlaydigan maxsus detektorlarni o'rnatish ham tavsiya etiladi. Agar is gazining hidi sezilsa, tezda gaz qurilmasini o'chirish, gaz tarmog'ini ham bel-gilangan joylardan o'chirish, xonaning eshiklari va derazalarini ochish, zudlik bilan sohaning malakali mutaxassislarga murojaat qilish kerak. Unutmang, eski, buzilgan, yaroqsiz gaz qurilmalaridan o'zbo-shimchalik bilan foydalanish yomon oqibatlarga

olib kelishi mumkin. Isitish va gaz bilan bog'liq qurilmalar ishlayotgan xona havosi doimiy ravish-da yaxshi shamollatib turilishi shart!

Gaz ballonlarini quyosh nuridan himoya qilish kerak. Ularni yorug' emas, salqin va quritilgan joy-larda saqlash lozim. Is gazi chiqishi bilan bog'liq favqulodda holatlarda, is gazidan zaharlanganda darhol toza havoga chiqish va tez yordamga mu-rojaat qilish kerak!

Tabiiy gazdan foydalanishda texnik qoidalariga, yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy amal qilish har bir xonadon va korxona uchun ustuvor vazifadir. Ayniqsa, bolalarni gaz qurilmalari yonidan uzoq tutish juda muhim.

Gazdan to'g'ri va xavfsiz foydalanish orqali ko'plab fojialarning oldini olish mumkin. Shunday ekan, is gazidan ehtiyot bo'ling, gaz qurilmalarining to'g'ri ishlashiga doimo e'tiborli bo'ling! Ayniqsa, kuzgi-qishki isitish mavsumida mutaxassislarning tavsiyalariga qat'iy amal qiling!

Jasurbek EGAMNAZAROV,
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyati
Hukumat uyi va avtoxo'jaligi binosida
YXTTEB kichik inspektori,
kichik serjant